

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA AYOL OBRAZINING IFODALANISHI

Djumaniyazova Zilola Navfal qizi,
Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

O‘zbek xalq maqollarida ham ayol obrazini ifodalashga xizmat qiluvchi ko‘plab leksik birliklar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek madaniyatida ayollarning tutgan o‘rni, ularning jamiyat va oiladagi mavqei hamda ayollarga nisbatan mavjud bo‘lgan milliy qarashlarni aks ettiradi. Quyida maqollarda *ayol, xotin, ona, qiz (qiz bola), kampir, opa, singil, kelin, qaynona* kabi so‘zlar yordamida ayollarga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan qarashlar va ularning ijtimoiy mavqei, ayollar haqidagi an’anaviy tasavvurlar, gender stereotiplari va obraziy ro‘llarining taqsimlanishi qanday aks ettirilganligini ochib berishga harakat qilamiz.

Bir ayolning makri qirq tuyaga yukdir maqoli ayollarning aqliy va psixologik qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlardagi mahoratini va o‘z maqsadlariga erishishda qo‘llaydigan strategiyalarni ifodalaydi. Ayol obrazi bu o‘rinda salbiy konnotatsiya kasb etib, makkorlik va hiyla-nayrangni anglatuvchi ma’noda gender stereotiplarini aks ettiradi.

Uch ayol – to‘rt g‘iybat maqolida ayol so‘zi salbiy stereotipik xususiyatlar bilan bog‘lanadi. Maqol ayollar o‘rtasidagi munosabatlarni g‘iybat va mish-mishlarga moyil deb tasvirlaydi. Bu kabi qo‘llanishlar *ayol* so‘zining semantikasini cheklaydi va gender stereotiplarini voqelantiradi.

Ayolning aqli uning go‘zalligida, erkakning go‘zalligi uning aqlida maqolida *ayol* so‘zi erkaklardan farqli o‘laroq, asosan tashqi ko‘rinish bilan bog‘liq holda keltiriladi. Bu maqoldagi *ayol* so‘zining qo‘llanilishi jinslararo farqlarni keskin ajratib, ayollarning aql-idrokini erkaklarnikidan pastroq qo‘yadi. *Ayol* so‘zining bunday semantik chegaralanishi gender tengsizligini yuzaga chiqargan holda ayollarning intellektual salohiyatini to‘liq e’tirof etishga to‘sqinlik qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, o‘zbek maqollarida *ayol* so‘zining semantikasi va qo‘llanilish xususiyatlari jamiyatdagi gender stereotiplarini aks ettiradi. *Ayol* so‘zi ko‘pincha an’anaviy gender rollariga mos keladigan ma’nolarda, ya’ni ayollarning tashqi ko‘rinishi, axloqiy fazilatlarini yoki salbiy stereotiplarga ishora qilish jihatidan qo‘llanilgan.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqadiki, o‘zbek maqollarida *xotin* so‘zining qo‘llanilishi xalqimizning ayol zotiga bo‘lgan an’anaviy qarashlari, ularning oilaviy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni hamda rolini yaqqol voqelantiradi. Tahlil natijalariga ko‘ra,

xotin so'zi ishtirok etgan maqollar ayollarning oila va jamiyatdagi ahamiyatini ta'kidlash bilan birga, ularga xos bo'lgan axloqiy va estetik me'yorlarni ham ifodalaydi. Shuningdek, ushbu maqollar ayollarning turli qobiliyat va fazilatlarini e'tirof etadi.

O'zbek tilida *ona* so'zi va uning maqollardagi qo'llanilishi xususiyatlarini tahlil qilarkanmiz, onalikning madaniy va axloqiy qadriyatlardagi o'rni, ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar, jamiyatda onalikka bo'lgan hurmat va e'tibor masalalari maqollarda alohida ahamiyat kasb etishi diqqatimizni o'ziga tortdi. Masalan, *Onangni otangga bepardoz ko'rsatma* maqolida oiladagi muvozanat va shaxsiy hayotning muhimligi uqtirilib, oilaviy aloqalarda o'zaro hurmat va shaxsiy chegaralarning saqlanishi zaruriyati ko'rsatiladi, bu esa, shubhasiz, sog'lom oilaviy muhitning asosiy tamoyillaridan biridir. *Onangni otangga bepardoz ko'rsatma* maqoli orqali *ona* so'zi oilaviy muhitda hurmat va qadrlashning muhimligini anglatuvchi bir semaga ega. Onaning oilada tutgan o'rni nafaqat mehribonlik va g'amxo'rlik bilan, balki shaxsiy hurmat doirasi bilan ham bog'liqdir. Bu ibora orqali, *ona* so'zi oilaviy aloqalarda muvozanat va hurmatning muhimligini urg'ulashiga han e'tibor qaratish o'rinlidir.

Ona va farzand o'rtasidagi empatik bog'liqlik *Bolaning qo'li shilinsa, onaning ko'ngli shilinadi* maqolida o'z ifodasini topgan. Farzandning kichik bir ozor ko'rishi onaning yuragida katta iz qoldiradi, bu onalikning intuitiv mehri va g'amxo'rligini namoyon etadi. Ko'rinib turganidek, *Bolaning qo'li shilinsa, onaning ko'ngli shilinadi* maqolida *ona* so'zi farzandiga nisbatan cheksiz empatiya va mehribonlikni, qolaversa, ona va farzand o'rtasidagi kuchli psixologik va emotsional aloqani ifodalaydi. Ona, bu kontekstda, o'z farzandining har qanday ozorini chuqur his qiluvchi va ularga cheksiz g'amxo'rlik qiluvchi muhim bir shaxs sifatida qaraladi.

Onalikning muqaddasligi *Jannat onalar oyog'i ostida* maqolida e'tirof etiladi, Islom dinidagi onalikka bo'lgan ulug'vorlik va hurmat tuyg'ulari gavdalantiriladi. Onalar, o'zlarining mehnat va fidakorliklari orqali farzandlarning hayotida beqiyos rol o'ynaydi va bu xizmatlari evaziga ulkan hurmatga sazovor bo'lishlari kerakligi ta'kidlanadi. Shunday ekan, *Jannat onalar oyog'i ostida* maqoli *ona* so'zining diniy va ruhiy semantikasini belgilab beradiki, ona, nafaqat oilaviy va ijtimoiy muhitda, balki ruhiy va axloqiy jihatdan ham yuksak mavqega egaligi o'z ifodasini topadi. Onalikning bu qadar ulug'vorligi, *ona* so'ziga muqaddaslik va ulkan hurmatni anglatuvchi so'zning ichki, yashirin, ammo muhim ma'nosini namoyon qiladi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, o'zbek maqollarida *ona* so'zi bilan shakllangan iboralar, onalikning nafaqat biologik va instinktiv jihatdan, balki

ijtimoiy, axloqiy va ruhiy o‘lchovlarda ham chuqur ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ona va onalik haqidagi maqollar, onalarga bo‘lgan chuqur hurmat va minnatdorchilik hissini, shuningdek, ona va farzand o‘rtasidagi bog‘liqlik va muhabbatni ifodalaydiki, bu o‘zbek oila va jamiyatidagi muhim axloqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq maqollarida ayol obrazini ifodalovchi leksik birliklar semantikasi va qo‘llanilishi o‘zbek madaniyatida ayollarning tutgan o‘rni, ularning jamiyat va oiladagi mavqei hamda ayollarga nisbatan mavjud bo‘lgan milliy qarashlarni yorqin aks ettirilgan bo‘lib, ularda ayollarning nafaqat ijobiy fazilatlari, balki salbiy xususiyatlari ham badiiy talqin etilgan. Shuningdek, ular vositasida xalqimizning gender stereotiplari va an’anaviy qarashlari ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'nolar maxzani. Toshkent, "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Ilmiy nashriyoti, 2001.
2. Abdumalik o‘g‘li, O. R. Cultural Comparison of Uzbek and English Language Speech Styles.
3. Ганиев, Б. С., & Ганиева, М. С. (2020). Семья как важный социальный фактор формирования предпринимательских навыков у молодежи (Опыт Узбекистана). In Проблемы социальной психологии и социальной работы (pp. 25-27).